HARBIY XIZMATGA TAYYORLOVCHI O'QUV DASTURLARINI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Sh.M. Alijonov

Osiyo xalqaro universiteti

Pegagogika yo ‘nalishi 2-bosqich magistranti

T.X.Olimov

Turon fanlar akademiyasi faxriy a’zosi, akademik,

Osiyo xalqaro universiteti professori,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada harbiy xizmatga tayyorlovchi o'quv dasturlarining normativ-huquqiy asoslari, tarkibiy tuzilmasi, hajmiy taqsimoti va amaliy samaradorligi kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo viloyati, Termiz shahri MMTB 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 60 nafar 10-11-sinf o'quvchisini harbiy xizmatga tayyorlovchi pedagogik jarayon tanlab olingan. Tahlil natijasida o'quv dasturlarining beshta asosiy bloki – umumharbiy, taktik, jismoniy, axborot-kommunikatsiya va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik – aniqlanib, ularning vaqt taqsimoti hamda amaliy mashg'ulotlar salmog'i baholandi. Xalqaro tajriba – xususan AQSh va Buyuk Britaniya modellari – asosida harbiy ta'limni fuqarolik oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalash istiqbolli yo'nalish sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *harbiy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, o'quv dastur, SATE modeli, METL, harbiy tayyorgarlik, simulyatsion texnologiyalar, xalqaro tajriba.*

KIRISH

Zamonaviy davlatchilik sharoitida milliy mudofaa tizimini mustahkamlash va Qurolli Kuchlarning jangovar salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor

yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatga layoqatli, bilimli va ma'naviy jihatdan yetuk kadrlar tayyorlash ushbu vazifaning markaziy o'zagini tashkil etadi. [1] Shu sababli harbiy xizmatga tayyorlovchi o'quv dasturlarining mazmuni, tuzilmasi va amaliy samaradorligini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Vatan himoyasi har bir fuqaroning muqaddas burchi sifatida belgilangan.[2] Ushbu konstitutsiyaviy me'yor harbiy ta'lim tizimining tub maqsadini belgilab beradi: yoshlarni nafaqat harbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassis, balki vatanparvar, mas'uliyatli va milliy qadriyatlarni qadrlaydigan fuqaro sifatida shakllantirishga qaratilgan yaxlit tizim yaratish.

Zamonaviy qurolli mojarolar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jangovar harakatlarning muvaffaqiyati nafaqat harbiy texnikaning texnik ustunligiga, balki ko'proq darajada harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi, bo'linmalar o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatiga bog'liq bo'lib bormoqda.[3] Shu bois harbiy ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablar ham yangilanib, kompetensiyaviy yondashuv, texnologik savodxonlik va psixologik barqarorlik harbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmoqda.

Mavzuning dolzarbligiga qaramay, mahalliy ilmiy adabiyotlarda harbiy ta'lim dasturlarining tarkibiy tuzilmasi, hajmiy taqsimoti va xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlili masalalari hali yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Harbiy xizmatga tayyorlovchi o'quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari horijda Abbe A. (2021), Reigeluth Charles M., Bell Herbert H. (2014), Fletcher J.D., Chatelier P.R., Raven J. **(**1984), Reigeluth Charles M., Bell Herbert H. (2014), Alberto Cutillo (2013), David Curran (2013) va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.[4]

MDH davlatlarida ushbu mavzu bilan Доломанюк Л.В. (2011), Калашников В.Л., Баузина Е.Н., Оксюковская В.Н. (1999), Леницкий К.С. (2015), Petrachkov O., Kyslenko D., Mykhaylov V., Shostak R., Polyvaniuk V. (2024) va boshqalar shug‘ullangan.[5]

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda harbiy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-pedagogik asoslari Umarov I.O. (2025), Islamova M.Sh. (2023) , Axmedov O.G'. , Алимардонов З.Ш. (2016), Toshpanov D.Yu. (2021), Mirzoyev N.M. (2020) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.[6]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot uchun manba sifatida O'zbekiston Respublikasining harbiy ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari, harbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv qo'llanmalari, shuningdek xorijiy davlatlarning harbiy-ta'lim tizimiga oid ochiq manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan kompleks tarzda foydalanildi: me'yoriy-huquqiy hujjatlarni mazmuniy tahlil qilish; o'quv dasturlarining tarkibiy-funktsional tahlili; qiyosiy-tipologik metod (O'zbekiston tajribasini AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Qozog'iston modellari bilan qiyoslash); statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va so'rovnoma natijalarini tizimlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida harbiy xizmatga tayyorlovchi pedagogik jarayon -- xususan, Surxondaryo viloyati, Termiz shahri MMTB 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 60 nafar 10-11-sinf o'quvchisini qamrab olgan tayyorgarlik jarayoni -- tanlab olindi. So'rovnoma va kuzatuv ishlari aynan mazkur o'quvchilar guruhi negizida olib borilib, quyida keltirilgan tahlil va xulosalar shu asosda shakllantirildi.

Tahlil ikki bosqichda olib borildi: birinchi bosqichda o'quv dasturlarining normativ asosi va tarkibiy tuzilmasi aniqlandi; ikkinchi bosqichda dasturning amaliy samaradorligi, ya'ni nazariy va amaliy mashg'ulotlar nisbati, moddiy-texnik ta'minot darajasi va xalqaro tajribaga muvofiqligi baholandi. Bunda tadqiqotchi tomonidan ilgari o'tkazilgan so'rovnoma va kuzatuv natijalaridan ham foydalanildi.[7]

Tahlil va natijalar. Harbiy ta'lim tizimining normativ asosi – bu o'quv dasturlarining mazmuni, talablar tizimi va tashkiliy tartibini belgilab beruvchi huquqiy hujjatlar majmuidir. O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatga tayyorgarlik tizimi bir necha asosiy normativ-huquqiy hujjatlarga tayanadi: O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi,[8] unda Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish va axborot texnologiyalarini joriy etish zarurligi belgilangan; «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonun,[9] unda chaqirilish tartibi va tayyorgarlik bosqichlari belgilangan; «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, [10] unda kompetensiyaviy yondashuv asosida kadrlar tayyorlash ustuvor yo'nalish sifatida mustahkamlangan. Bundan tashqari, Saf tayyorgarligi nizomi[11] va «Chaqirivga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'quv qo'llanmalari[12] harbiy ta'lim amaliyotining metodik asosini tashkil etadi.

Normativ bazaning to'liqligi o'quv dasturlarining milliy xavfsizlik talablariga mos ravishda ishlab chiqilishini ta'minlasa-da, tahlil shuni ko'rsatadiki, simulyatsion texnologiyalar va raqamli harbiy boshqaruv sohasidagi standartlarni normativ jihatdan tartibga solish hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tahlil qilingan dasturlar asosida harbiy xizmatga tayyorlovchi o'quv dasturlari bir-birini to'ldiruvchi beshta asosiy blokdan iborat ekanligi aniqlandi[13] (1-jadvalga qarang).

№	Blok nomi	Asosiy mazmun	Shakllanadigan kompetensiyalar
1	Umumharbiy tayyorgarlik	Harbiy nizomlar, saf tayyorgarligi, qurol bilan muomala, intizom asoslari	Intizomlilik, vatanparvarlik, mas'uliyat
2	Taktik va taktik-maxsus tayyorgarlik	Bo'linmalarni boshqarish, dala o'quvlari, tezkor qaror qabul qilish	Taktik fikrlash, muvofiqlashtirilgan harakat

№	Blok nomi	Asosiy mazmun	Shakllanadigan kompetensiyalar
3	Jismoniy tayyorgarlik	Kuch, chidamlilik, epchillik, harbiy standartlarga moslash	Jismoniy barqarorlik, stressga chidamlilik
4	Axborot-kommunikatsiya va boshqaruv asoslari	Raqamli aloqa, geoinformatsion tizimlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv	Texnologik savodxonlik
5	Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik	Milliy tarix, vatanparvarlik tarbiyasi, harbiy an'analar	Milliy g'urur, Vatanga sadoqat

1-jadval. Manba: muallif tomonidan tahlil asosida tuzilgan.

Birinchi blok – umumharbiy tayyorgarlik – dasturning poydevorini tashkil etib, Vatanga sadoqat va mas'uliyat kabi qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ikkinchi blok – taktik tayyorgarlik – harbiy xizmatchilarda tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa-da, tahlil shuni ko'rsatadiki, ba'zi hollarda o'quv mashg'ulotlari real jangovar sharoitga yetarli darajada yaqinlashtirilmagan.[14] To'rtinchi blok – axborot-kommunikatsiya asoslari – zamonaviy harbiy ta'limning yangi talabi bo'lib, so'rovnoma natijalari ko'rsatishicha, ushbu blok bo'yicha mashg'ulotlar hajmi va jihozlanganlik darajasi hali yetarli emas.[15]

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, harbiy tayyorgarlik dasturlarining minimal hajmi kamida 1500 soatni tashkil etishi, to'liqroq tayyorgarlik esa 1800 soatga yetishi maqsadga muvofiqdir[13] (2-jadval).

Fan / mashg'ulot turi	Soat miqdori	Ulushi (%)
Taktik tayyorgarlik	288	16,0

Fan / mashg'ulot turi	Soat miqdori	Ulushi (%)
Umumharbiy tayyorgarlik	216	12,0
Jismoniy tayyorgarlik	180	10,0
Axborot-kommunikatsiya asoslari	144	8,0
Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik	108	6,0
Harbiy tarix va milliy mudofaa asoslari	72	4,0
Umumqo'shin nizomlari	72	4,0
O'quv yig'ini (14 kun)	108	6,0
Qo'shin stajirovkasi (30 kun)	216	12,0
Variativ va fakultativ qism	396	22,0
Jami	**1 800**	**100,0**

2-jadval. Manba: muallif tomonidan dastur tahlili asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eng ko'p vaqt taktik va umumharbiy tayyorgarlikka ajratilgan. Qo'shin stajirovkasi va o'quv yig'inlari – birgalikda 324 soat – amaliy tayyorgarlikning hal qiluvchi qismini tashkil etadi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'rtasidagi nisbat taxminan 60:40 ni tashkil etib, bu ko'rsatkich kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillariga mos keladi.[12] Biroq amaliy mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan vaqtning ma'lum qismi moddiy-texnik ta'minot yetishmasligi sababli to'liq o'zlashtirilmayapti, trenajyor va simulyatorlarning yetishmasligi esa amaliy tayyorgarlikni cheklovchi muhim omilga aylanib bormoqda.

Harbiy tayyorgarlik dasturlarining metodologik asosini SATE (Systems Approach to Training and Education) modeli tashkil etadi. Ushbu model harbiy tayyorgarlikni beshta ketma-ket bosqichda – tahlil, loyihalash, ishlab chiqish, amalga oshirish va baholash – rejalashtirishni nazarda tutadi.[15] Tahlil bosqichida bo'linmaning aniq jangovar vazifalari ro'yxati (METL) aniqlanadi;

loyihalash bosqichida uzoq, o'rta va qisqa muddatli mashg'ulotlar rejasi tuziladi; amalga oshirish bosqichida «Jangovar sharoitda mashq qiling» (Train as you fight) tamoyiliga rioya etiladi; baholash bosqichida esa «Harakatdan keyingi tahlil» (After Action Review) usuli qo'llaniladi.[3] O'zbekiston Qurolli Kuchlarida ham ushbu yondashuvga mos «Zafar-2022» va «Jasorat-2023» kabi keng ko'lamli mashg'ulotlar METL asosida rejalashtirilgan.[16]

Fuqarolik oliy ta'lim muassasalari bazasida harbiy kadrlar tayyorlash amaliyoti ko'plab davlatlarda keng tarqalgan.[3,17,18] Xalqaro ma'lumotlarga ko'ra, Buyuk Britaniya Qurolli Kuchlaridagi kadrli ofitserlarning taxminan 30 foizi fuqarolik universitetlari huzuridagi maxsus tayyorgarlik kurslaridan o'tgan, AQShda esa bu ko'rsatkich 90 foizgacha yetadi (3-jadval).

Davlat	**Asosiy model**	**O'zbekiston uchun qo'llash imkoniyati**
AQSh	ROTC – universitetlarda ofitserlar tayyorlash (90%)	OTMlar bazasida harbiy modulni kengaytirish, kredit tizimiga moslash
Buyuk Britaniya	Fuqarolik universitetlari huzuridagi kurslar (30%)	Harbiy-amaliy kurslarni variativ modul sifatida joriy etish
Germaniya	Bundeswehr universiteti – harbiy va fuqarolik ta'limi birligi	Harbiy akademiya va OTMlar o'rtasida akademik hamkorlik
Qozog'iston	Kredit tizimiga moslashtirilgan	Mintaqaviy tajriba va o'zaro tan olish

Davlat	Asosiy model	O'zbekiston uchun qo'llash imkoniyati
	harbiy-professional dasturlar	mexanizmlari

3-jadval. Manba: muallif tomonidan ochiq manba ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar harbiy ta'limning fuqarolik ta'lim tizimi bilan integratsiyasi ko'plab davlatlar tomonidan asoslangan tizimli yondashuv ekanligini ko'rsatadi. Bu model iqtisodiy jihatdan samaraliroq, intellektual muhitni kengaytiradi va fuqarolik jamiyati bilan aloqani mustahkamlaydi. O'zbekiston uchun ham harbiy-professional fanlarni OTMlardagi variativ modul sifatida kengaytirish, qo'shin stajirovkasini akademik kredit tizimiga moslash istiqbolli yo'nalish sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.[19]

Tadqiqot so'rovnomasi va kuzatuv natijalari asosida quyidagi umumlashtirish ilgari suriladi. Kuchli tomonlarga quyidagilar kiradi: o'quv dasturlari milliy qadriyatlar va istiqlol mafkurasi asosida shakllantirilgan; SATE metodologiyasi va METL asosida rejalashtirilgan tizimli tayyorgarlik bo'linmalarning jangovar samaradorligini oshiradi; yosh ofitserlarni tayyorlashda jamoaviy ishlash va yetakchilik ko'nikmalariga alohida e'tibor beriladi.[3] Zaif tomonlarga esa quyidagilar kiradi: amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda trenajyor va simulyatorlardan foydalanish yetarli emas; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tayyorgarlik o'rtacha darajada;[7] yosh ofitserlar xizmatni boshlagan dastlabki davrda bo'linmalarni boshqarishda metodik qiyinchiliklarga duch kelmoqda.[20]

Tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi asosli takliflar ilgari suriladi:[21] birinchidan, o'quv dasturlariga «Raqamli jangovar boshqaruv asoslari» alohida modulini (kamida 72–144 soat hajmida) kiritish; ikkinchidan, simulyatsion va kengaytirilgan borliq texnologiyalarini keng joriy etish; uchinchidan, amaliy

mashg'ulotlar ulushini umumiy o'quv vaqtining kamida 50 foiziga yetkazish; to'rtinchidan, baholash mezonlarini kompetensiyaviy model asosida qayta ishlab chiqish; beshinchidan, harbiy-amaliy kompetensiyalarni monitoring qilish tizimini joriy etish; oltinchidan, psixologik tayyorgarlik va ma'naviy-ma'rifiy bloklarni kuchaytirish.

XULOSA

O'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatga tayyorgarlik tizimi mustahkam normativ-huquqiy poydevorga tayanadi,[10,11,19,21] biroq simulyatsion va raqamli boshqaruv standartlarini tartibga soluvchi me'yoriy baza yanada rivojlantirilishi lozim.

Ikkinchidan, amaldagi o'quv dasturlari beshta asosiy blokni qamrab olgan holda harbiy xizmatchining kasbiy profilini kompleks shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, SATE metodologiyasi asosida tashkil etilgan tizimli tayyorgarlik jangovar samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.[3]

Uchinchidan, nazariy bilim darajasi qoniqarli bo'lsa-da, simulyatsion va texnologik tayyorgarlik, shuningdek boshqaruv ko'nikmalari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar yetarli emas.[17]

To'rtinchidan, xalqaro tajriba harbiy ta'limni fuqarolik ta'lim tizimi bilan integratsiyalashning iqtisodiy va pedagogik jihatdan samarali yondashuv ekanligini tasdiqlaydi.[7]

Beshinchidan, ilgari surilgan takliflar majmui – raqamli boshqaruv moduli, simulyatsion texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, integratsiyalashgan baholash va kompetensiyalar monitoringi – birgalikda harbiy ta'limning zamonaviy talablarga javob beradigan tizimli modelini yaratish imkonini beradi. Ushbu model nafaqat jangovar tayyorgarlikni oshiradi, balki yoshlarni vatanparvar va mas'uliyatli fuqaro sifatida shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari harbiy ta'lim tizimini boshqaruvchi muassasalar, OTMlarning harbiy kafedralari hamda o'quv dasturlarini ishlab chiquvchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusi tadqiqotlar uchun raqamli boshqaruv kompetensiyalarini chuqurroq o'rganishga zamin yaratadi.

Yuqorida bayon etilgan tahlil va xulosalar tadqiqotning obyekti bo'lgan Surxondaryo viloyati, Termiz shahri MMTB 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 60 nafar 10-11-sinf o'quvchisini harbiy xizmatga tayyorlovchi pedagogik jarayon misolida o'tkazilgan so'rovnoma va kuzatuv natijalariga tayanadi, bu esa ilgari surilgan takliflarning aynan maktab ta'lim muassasasi sharoitida amaliy asoslanganligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1]. O'zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-yanvardagi PF-5326-son farmoni bilan tasdiqlangan. – Toshkent, 2018.

[2]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 52-modda. – Toshkent, 1992 (2023-yildagi tahrirda).

[3]. U.S. Departments of Defense and Labor. Joint DoD/DOL Study on Coordination of Job Training Standards with Certification Standards for Military Occupational Specialties. – Washington, D.C., 2005.

[4]. Abbe A. Evaluating Military Cross-Cultural Training Programs. – 2021.; Army Transformation: Hearing before the House Committee on Armed Services, 108th Cong. (2004) (statement of Maj Gen Robert H. Scales Jr., USA [Ret]).; Defense Planning Guidance. – Washington, DC: Department of Defense, 2006–11; Quadrennial Defense Review Report. – Washington, DC: Department of Defense, 2006.; Reigeluth Charles M., Bell Herbert H. Paradigm change in military education and training // Educational Technology. – May-June 2014. – P. 52–57. ; Fletcher J.D., Chatelier P.R. An Overview of Military Training. – Institute for Defense Analyses, Alexandria, Virginia, 2000–2002. ; Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H.K.

Lewis, 1984. – 251 p.; U.S. Departments of Defense and Labor. Joint DoD/DOL Study on Coordination of Job Training Standards with Certification Standards for Military Occupational Specialties. – Washington, D.C., 2005.; American Council on Education (ACE). Transcripts for Military Personnel. – Washington, D.C., 2012.; Alberto Cutillo. Deploying the Best: Enhancing Training for United Nations Peacekeepers. Providing for peacekeeping №: 5. International Peace Institute. August 2013; David Curran, "Training for Peacekeeping," International Peacekeeping20, No. 1 (2013): 80–97.

[5]. Доломанюк Л.В. Формирование военно-профессиональной компетенции будущих офицеров: автореф. дисс. канд. пед. наук. – Казань, 2011. – С. 3.; Калашников В.Л., Баузина Е.Н., Оксюковская В.Н. Высшее образование в современной России // Образование в регионах России и странах СНГ. – 1999. – № 9–10. – С. 33–39.; Леницкий К.С. Организационно-педагогическое обеспечение мониторинга качества обучения будущего специалиста в военном вузе: дисс. канд. пед. наук. – Омск, 2015. – С. 28–29.; Petrachkov O., Kyslenko D., Mykhaylov V., Shostak R., Polyvaniuk V. Motivation of military specialists to engage physical training during the legal regime of martial law // Journal of Physical Education and Sport (JPES). – Vol. 24, issue 6, Art 165, June 2024. – P. 1457–1464.

[6]. Umarov I.O. Implementation of a competency-based approach in military education and opportunities for developing students' acquired skills and knowledge // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). – Vol. 8, Issue 09, September 2025. DOI: 10.5281/zenodo.17140951.; Islamova M.Sh. Harbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik jihatlari: monografiya. – Toshkent: O'zb. Res. MV CHOTQMBY bosmaxonasi, 2023. – 152 b.; Axmedov O.G'. O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarida harbiy va milliy qadriyatlar // New Renaissance International Scientific Journal. – Volume 2, Issue 12. – P. 95–97.; Алимардонов З.Ш. Ҳарбий хизматчиларнинг касбий компетентлигини тарбиялаш механизмларини илмий-педагогик

такомиллаштириш // Таълим технологиялари. – 2016. – №8. – Б. 27–32.; Toshpanov D.Yu. Harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolari // Mudofaa va xavfsizlik. – 2021. – No 3. – B. 44–52.; Boshlang'ich umumqo'shin harbiy tayyorgarligi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. – Toshkent: Sharq, 2005. – 224 b.; Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik. 1-2-qismlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2009. – 312 b.; Mirzoyev N.M. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 184 b.; Armiya – davlat tayanchi, tinchlik kafolati. – Toshkent: Mudofaa vazirligi, 2004. – B. 38–39.; Yangi O‘zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g‘urur va sadoqat timsolidir. “Yangi O‘zbekiston” Ijtimoiy-siyosiy gazeta. Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari № 8 (1069), 2024-yil 12-yanvar, juma.

[7]. Toshpanov D.Yu. Harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolari // Mudofaa va xavfsizlik. – 2021. – No 3. – B. 44–52.

[8]. 30.08.1995 yildagi 105-I-son; O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.01.2018 yildagi O‘RQ-458-son; https://lex.uz/docs/-3495885

[9]. O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-345. – 2002-yil 12-dekabr.

[10]. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-637. – 2020-yil 23-sentabr.

[11]. Saf tayyorgarligi nizomi. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri buyrug'i No 13/34/6/84 bilan tasdiqlangan. – 2013-yil 28-oktabr.

[12]. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik. 1-2-qismlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2009. – 312 b.

[13]. Boshlang'ich umumqo'shin harbiy tayyorgarligi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. – Toshkent: Sharq, 2005. – 224 b.

[14]. Armiya – davlat tayanchi, tinchlik kafolati. – Toshkent: Mudofaa vazirligi, 2004. – B. 38–39.

[15]. American Council on Education (ACE). Transcripts for Military Personnel. – Washington, D.C., 2012.

[16]. Yangi O‘zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g‘urur va sadoqat timsolidir. “Yangi O‘zbekiston” Ijtimoiy-siyosiy gazeta. Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari № 8 (1069), 2024-yil 12-yanvar, juma

[17].Reigeluth Charles M., Bell Herbert H. Paradigm change in military education and training // Educational Technology. – May-June 2014. – P. 52–57.;

[18].Alberto Cutillo. Deploying the Best: Enhancing Training for United Nations Peacekeepers. Providing for peacekeeping №: 5. International Peace Institute. August 2013

[19]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-yanvardagi PF-5618-son farmoni «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy ta'limini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida». – Toshkent, 2019.

[20]. David Curran, “Training for Peacekeeping,” International Peacekeeping20, No. 1 (2013): 80–97.

[21]. Mirzoyev N.M. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 184 b.